

ZAMONAVIY TA'LIMDA TYUTOR, EDVAYZER, FASILITATOR VA  
MODERATORLIK FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832009>

**Mamaraimova Mohlaroyim**

*GulDU Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2 kurs magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda tyutor, edvayzer, moderatorlik faoliyati bilan birga fasltator xaqda aniq ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tyutor, edvayzer, moderator, fasltator, faoliyat, murabbiy. reglamentiga, tanaffusga, o'yin.*

Zamonaviy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYUTOR - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER (advisor)-frantsuzcha “avisen”“o'ylamoq”) talabalarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR - (ingliz tilida .facilitator, latinchafacilis–engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR -Qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

Fasilitatorning xususiyatlari:

- axborot almashish jarayonini yo'naltiruvchi
- nazariyani amaliyot bilan bog'lovchi
- ishtirokchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ish ko'ruvchi
- yangilikni qabul qilishda yordam beruvchi
- tadqiqot ishlarini tashkillashtiruvchi
- muammolar echimini topishda ishtirokchilarning o'z
- bilimi va tajribasi asosida mustaqil qaror qabul qilishga yordam beruvchi
- ishtirokchilar faoliyatini yo'naltiruvchi

Fasilitatorning vazifalari:

- Seminarni tashkillashtirishda yordam ko'rsatadi;
- Seminar kun tartibini ishlab chiqishda yordam beradi;
- Muammoni hal qilish uchun protsedura va yondashuvlarni taklif qiladi;

Seminarni reja asosida rivojlanishini ta'minlash uchun usullar ishlab chiqadi;

Fasilitator ma'lum savol bo'yicha ma'lum bir echimlarni ishlab chiqish tartibi uchun mas'uldir, ushbu echimlarning mazmuni va amalga oshirilishi uchun emas.

- Ishtirokchilar shu seminarda qo'llash uchun ishlab chiqilgan “qoidalar, tartib va instrumentlar”dan foydalanishliklarini ta'minlovchi usullarni qo'llashi;
- Seminarda o'zini tutishning “to'g'ri” modellarini qo'llab- quvvatlashi, shu jumladan, faol ishtirok etishni, “qiziqishlar” bo'yicha kichik guruhlarining yo'qligini, seminar ishtirokchilari tomonidan olingan majburiyatlarni qayd etib borishni;
- Muloqotlarda to'siqlarni bartaraf etadi va ularning samarali kechishini ta'minlaydi;
- Oraliq xulosalar chiqaradi va munozaralar yo'nalishlarini aniqlashtiradi;
- Guruhga xulosa chiqarishga va qaror qabul qilishga yordam beradi.

Muallim - fasilitator

Fasilitator interaktiv o'yin jarayonini nazorat qiladi, uning tartib-qoidalari buzilmasligini ta'minlaydi. Bu esa qolgan ishtirokchilarning o'yin va mashg'ulotlar maqsadiga, interaktiv o'zaro aloqa ma'zmuniga diqqat qaratishini ta'minlaydi.

Katta yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda ular o'zini qulay (jismoniy va ma'naviy) xis etadigan sharoitni yaratish muxim. Shunda ular ommaviy rivojlanishga va bilim olishlikka layoqatli bo'ladilar. Bu fasilitatorning muxim vazifasidir, chunki, ko'pchilik interaktiv texnologiyalar auditoriya oldida aniq haraqatlar qilishni, ommaviy prezentatsiyalarni nazarda tutadilar. Bunday o'quv jarayoni tajriba bilan bog'liq bo'lgani holda, shubhasiz, tinglovchilarning, ayniqsa, rahbarlarning o'zlashtirishini murakkablashtiradi va mashg'ulotlarda o'zaro ishonch, tushunish va sirlilik muhitini talab etadi.

O'zaro ishonch muhitini yaratish ko'p sabablarga bog'liq:

- “o'yin maydoni”, ya'ni qulay atrof muhit (havo, yorug'lik, mebel, videotexnika, flipchartlar va b.q.);
- o'zgalarda ishonch va yaxshi taa'ssurot xissini o'yg'otadigan interaktiv ta'sirni tashkilashtirishda muallimning o'zini o'zi prezentatsiya qilishi;
- ish reglamentiga, tanaffusga va asosiy o'yin tartibiga aloqador tashkiliy masalalarni gurux bilan muhokama qilish;
- “o'z xohishiga ko'ra”asosida ish olib borish: kim gurux ichida ishlashni xohlamasa majbur qilmaslik;
- guruxda avvaldan mavjud bo'lgan bilimlar va tajribalarni aniqlash;
- o'yinga “kirishish” uchun “qizituvchi” mashqlar, charchoqni oladigan, bo'shashtiradigan va samimiylikka chaqiradigan treninglar;



□ bo'lib o'tgan o'yin natijalari muhokamasi haqida fikr yuritish, xissiyot va ta'ssurotning aks etishi xamda o'zaro konstruktiv tanqid.

Amaliy o'yinlar natijalari muhokamasida, odatda, asosiy eti'bor faoliyat natijasiga, chiqarilgan xukumlar va ishlab chiqilgan programmalar yoki proektlar analiziga qaratiladi. Shu bilan birga, trening mashg'ulotlarida o'zaro aloqa jarayoni, ayniqsa, agar ular kommunikativ treninglar bo'lsa, ahamiyatga ega. Shuning uchun muhokamaga va interaktiv o'zaro alokaning ko'p qirrali analiziga etarlicha vaqt ajratish kerak. Refleksiv analiz qilish, o'z va o'zgalar xatti-harakatlari ustida fikr yuritish – bu ma'lum vaqt talab qiladigan fikrlash jarayonidir. Tinglovchilar faqat o'ylash emas, balki, mustaqil hulosa va xukumlar chiqarishlari kerak.

Muallim-fasilitator ishtirokchilarning o'zgalar nuqtai-nazari va o'ziga xosligini inobatga olgan holda hamkorlik qilish tuyg'usini o'yg'otadi va shu yo'sinda guruxlarda muntazam ish olib boradi. Bunday maqsadlarga erishish uchun quyidagilar lozim:

- samimiy savolar berish;
- guruxdan kelayotgan turli signalarga ijobiy ahamiyat qaratish;
- guruxlar orasidigi janjalli va chalkash suxbatlarga aniqlik kiritish;
- guruxga xulosalar chiqarishda yordam berish;
- kerakli ma'lumotlarni taqdim etishga tayyor bo'lish;
- guruxning qaror qabul qilishiga yordam berish.

Muallim-fasilitator, masalan, shunday savolar beradi: “Siz nimani sezdingiz..?”, “Mashqlarni bajarish vaqtidagi o'z xissiyotlari haqida kim gapirmoqchi?” va b.q. yoki “Sizningcha yana nima voqea yuz berdi?” va har bir o'yin ohirida unga yakun yasaydi.

Xullas, agarda maxsus mashqlarga vaqt bo'lmasa, unda tinglovchilardan yaqin oy yoki yil mobaynida nima bilan band bo'lishligi yoki o'yin mashg'ulotlaridan tashqari paytda, odatda, nima bilan shug'ullanishligi haqida so'ralishi mumkin. 3-5 minut mobaynida ishtirokchilarga savollar berishi, ulardan o'z xis-tuyg'ulari (joyida va ayni vaqtda) hakida so'rashi, boshqa gurux a'zolariga murojaat qilib, o'yin mashg'ulotlari jarayonida yuzaga kelgan vaziyatlar haqida fikr bildirishi mumkin.